

---

## TOSHLOQ TUMANIDA “KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH OYLIGI” DOIRASIDA YIG‘ILISH O‘TKAZILDI

Viloyat hokimining 2023 yil 17 noyabrdagi “Viloyat hududida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoyishiga asosan 2023 yil 20 noyabrdan 20 dekabrga qadar “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” deb e‘lon qilindi.

Bugun Toshloq tumani hokimligida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda xalq deputatlari tuman kengashi deputatlari, hokimlik xodimlari, mahallalarda faoliyat ko‘rsatayotgan hokim yordamchilari, maktab va maktabgacha ta‘lim bo‘limi, kadastr, qurilish bo‘limi, tibbiyot birlashmalari vakillari ishtirok etdi.

Yig‘ilishda korrupsion xavf-xatarlarning oldini olish, kelib chiqish sabablarini barvaqt aniqlash, bunday omillarni tamomila bartaraf etish kabi muhim vazifalar muhokama etildi. Ma‘ruzachilar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining asosiy tushuncha va tamoyillari haqida batafsil to‘xtalib o‘tildi. Yig‘ilish davomida huquq-tartibot idoralarining mas‘ul xodimlari so‘zga chiqib, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar xususida to‘xtalib o‘tdilar. Ushbu targ‘ibot tadbirida viloyat hokimligi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi boshlig‘i Farhod Nugmanov ham ishtirok etdi.

2023-11-22 14:26:48